

**UILYAM GOLDINGNING “PASHSHALAR HUKMDORI” ASARIDA
ILGARI SURILGAN G’OYALAR. PERSONAJLAR TASVIRI**

*Namangan davlat universiteti Magistratura bo’limi
Mamajonova Xusnora Ravshanbek qizi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Uilyam Goldingning asarlari va unda ilgari surilgan falsafiy qarashlar, personajlar tahlili yuzasidan so’z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, personajlar va hikoyadagi voqealarning real hayotga qay darajada yaqin ekanligi ham diqqat markaziga olingan.

Kalit so’zlar: “Pashshalar hukmdori”, roman, Ralf, manifest, hukumat, personaj, g’oya.

**IDEAS ADVANCED IN WILLIAM GOLDING’S LORD OF THE FLIES.
PORTRAIT OF CHARACTERS**

*Master’s department of Namangan State University
Mamajonova Khusnora Ravshanbek qizi*

Abstract: this article discusses the works of William Golding and the philosophical views advanced in it, as well as the analysis of characters. In addition, attention was paid to how close the characters and events of the story are to real life.

Key words: “The Lord of the Flies”, novel, Ralph, manifesto, government, character, idea.

Jahon adabiyoti durdonalarining tahlili va ular ustida olib asarlarni taqdim qilib jahon adabiyoti va ingliz adabiyoti rivojiga katta borilayotgan tadqiqotlar kunga kunga dolzarb ahamiyat kasb etib falsafiy qarashlarni qamrab olgani sababli ham bugunning dolzarb asarlar sirasiga kiradi. Golding kelmoqda. Badiiy asarlar insonga judayam kuchli ta’sir ko’rsatadi. Bunda yozuvchining asarni qay tilda va qay yo’sinda yaratgan ekanligi muhimdir. Xususan mashxur britaniyalik yozuvchi, shoir va dramaturg Uilyam Golding ham o’z kitobxonlariga o’nlab betakror asarlar taqdim etib jahon va britaniya adabiyoti rivojiga katta hissa qo’shgan. Uning eng mashxur asari 1954- yilda nashr etilgan “ Pashshalar hukmdori” nomli romanidir, yozuvchining bu asari adabiyot yo’nalishida Nobel mukofotiga sazovor bo’ldi va asar asosida filmlar ham suratga olindi. Romanda adib insoniyatning tabiatga nisbatan pessimizmini yaqqol chizgilar bilan tasvirlab bergen. Asarning nomlanishi ham o’ziga xos. Butun bir asar davomida bu nom faqatgina bir martta keltirib o’tilgan xolos. Romanga bu nomning berilishi esa Goldingga T. Eliot tomonidan taklif qilingan, kitobning nomi budparast xudoning

ibroniycha nomidan so'zma-so'z tarjimasi - Baal ovozi(bbĞ zbő), uning nomi (Beelzebub) nasroniylikda iblis bilan bog'langan.[1]

“Pashshalar hukmdori” asari yadro urushlari paytida samalyot halokati natijasida Angliyadan evakuatsiya qilingan bir guruh har xil yosh va tabaqadagi bolalarning kimsasiz orolga tushib qolishlari, ularning bu oroldagi qisqa muddatli hayotidan hikoya qiladi. “Pashshalar hukmdori” romani drammatik asarlar sirasiga kirib, ramziy ma'nolarga juda ham boy. Asar allegoriya hisoblanadi – undagi voqealar to'qima hikoya bo'lsa ham bizning ayni paytdagi dunyoyimizga oyna tutadi. Kitobxon romanni o'qish mobaynida osonlik bilan asarda ilgari surilgan g'oyalarni ilg'ab olishi mumkin . Asarda haqiqiy hayotda yuzaga keladigan va insoniyat yuzlab yillardan beri ro'baro bo'lib kelayotgan quyidagi konfliktlarni ko'rishimiz mumkin:

- Sivilizasiya va yovvoyilik ;
- Individualism va kollektivizm;
- Diktatura va demokratiya;

Asarda ilgari surilgan g'oyalalar haqida turli manbaalarda turlicha izohlar berilgan. “Pashshalar Hukmdori”da sivilizasiya va yovvoyilik g'oyalarni quyidagilar misolida ko'rishimiz mumkin. Asarning markaziy konflikti har bir inson tabiatida bo'lgan ikki impuls o'rtasida kechadi. Biri qonun-qoidalarga bo'ysunish, hamma uchun barobar bo'lgan umumiy odob – axloq qoidalarni buzmaslik, jamoa manfaatiga qarshi bormaslik bo'lsa, ikkinchisi esa shaxsning faqatgina o'z xohishlaridan kelib chiqib harakat (yoki harakatsizlik) qilishi, boshqalar ustidan hukmronlikka ega chiqish uchun zo'ravonlikdan tap tortmaslik, o'z istaklariga erishish yo'lida boshqalarni qurbanlik qilish kabilardir.[2]

Bebaho asar yaralishidagi yana bir unsur, asardagi individualizm va kollektivizmning kichik lekin o'ta ta'sirli saxnalar bilan ifolanganidir. Orolda paydo bo'lgan ko'plab muammolar – olov (signal)ning o'chib qolishi, boshpanalar yetishmovchiligi, Ralf jamoasining tarqalib ketishi, Piggining o'limi – bitta bolaning jamoa manfaatidan emas, o'z manfaatlaridan kelib chiqib harakatlanishi oqibatida kelib chiqadi. Bolalar ishslash o'rniga o'yinni tanlashgani uchun boshpanalar qurilmaydi; Jek ovga berilgani uchun olov o'chib qoladi; Jek bolalarga go'sht va erkinlik va'da qilgani uchun jamoa ikkiga bo'linib ketishi kabi saxnalarda individualizmni ayrim jihatlarini ko'rishimiz mumkin . Ralfning barcha uchun manfaatli lekin bolalardan mehnat talab qiladigan siyosati oqilona bo'lsa ham, bolalar Jekka qo'shilishadi. Ammo Jekning yolg'onlari fosh bo'ladi. Bu esa uning bolalarni zo'ravonlik va qo'rquv bilan ushlab turishga undaydi. Aslida bundan hokimiyatga o'ch Jek va uning qonxo'r o'ng qo'li Rojer zavq olishlari singari tasvirlarda ham yana bir bor individualizm va kolletivizmga guvoh bo'lamiz

Adib romanda Ralfning jamoasi misolida demokratianing o'ziga xos kichik shaklini tasvirlashga harakat qilgan. Unga ko'ra jamoada hamma o'z fikrini aytish

huquqiga ega bo'lgan, hattoki jamoadagi eng kuchsiz kichkintoylar (5-6 yoshli bolalar) ham. Voqealar rivoji shuni ko'rsatadiki, Ralf jamoaning manfaatini o'ylaydigan oqil yo'lboshchi, Piggi esa uning dono maslahatchisi. Jamoaning asosiy g'oyasi oroldan tezroq qutqarilish bo'lganligi sababdan ham jamoaning har bir vakiliga alohida vazifalar yuklatib qo'yiladi. Demokratiyaning yorqin dalillaridan biri jamoaning lideri ovoz berish yo'li bilan saylanishidir. Jekning jamoasi esa, aksincha, bir kishining hukmiga bo'ysuniladigan, zo'ravonlik va qo'rquv ostida ushlab turiladigan diktatorlik jamiyatiga o'xshaydi. Bunda barcha xatti-harakatlar bir kishining kayfiyatiga qarab belgilanadi. Agar kimdir bosh ko'tarsa, zudlik bilan shafqatsiz jazolash mexanizmi (Rojer) ishga tushadi. Bu jamoada tugal g'oyaning o'zi yo'q. Faqatgina mavjud bo'limgan maxluqdan himoya bor degan yolg'on va liderning vaxshiyligi guruhnii ushlab turadi.[3]

Pashshalar Hukmdoridagi qahramonlar hali bola bo'lsalarda, ularda yovuzlik qilishga moyillik bor. Asarda sodir bo'ladigan har bir ko'ngilsiz voqealari dunyosidagi voqealar bilan parallel ravishda rivojlanadi. Orolorda bolalar ikkiga bo'linib bir-biri bilan urushishadi. Vaholanki, oroldan tashqarida ham ikki katta guruh o'rtasida yadroviy urush bo'lgan. Orolorda begunoh bolalar bir kishining hukmronlikka bo'lgan chanqog'ini qondirish uchun o'ldiriladi, xuddi kattalar dunyosidagidek. Bolalarning ikkita alohida guruhida ikki xil hukumat amal qiladi: biri tenglik, pluralizm va erkinlikka asoslangan bo'lsa, ikkinchisi totalitar, zo'ravon va qo'rquv ustiga qurilgan tizim. Kattalar dunyosida ham mana shunday turli xil xarakteristikalarga ega hukumatlar faoliyat yuritadi. Asar xulosasiga ko'ra yovuzlik inson tabiatiga xos fenomen va undan bolalar ham holi emas degan fikr paydo bo'ladi.[4] Shu va shunga o'xhash voqealar ketma ketligi asnosida yozuvchi jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Asardagi qahramonlar ham shunchaki tanlanmagan ekanligini asarni o'qib ko'rgan odam darxol sezishi haqiqatdan uzoq emas. Chunki, asardagi bosh qahramon Ralf obrazi asarning asosiy protagonisti. Ushbu qahramon sivilizatsiya va tartibni ifodalaydi. Piggi obraziga to'xtaladigan bo'lsak , Piggi jismonan qolganlardan kuchsizroq lekin, muammolarga yechim topishda o'ta ustakor tarzida tasvirlanib, yozuvchi romandagi Piggi shaxsida ilm – fan, bilim va tafakkurni gavdalantirgan. Anarxiya, diktatura va totalitarizm, zo'ravonlik razmlari sifatida ko'rsatilgan qahramon esa – Jekdir. U hikoyadagi asosiy antagonist(salbiy qahramon). Dunyodagi ma'rifat va ezgulikni ochib berish maqsadida yaratilgan qahramon bu Saymon. Insoniyatdagi yovuzlik va sadistik tabiatni tasvirlovchi asar qahramoni Rojer hisoblanib, u Jekning o'ng qo'li va yovvoyi obrazini gavdalantirgan. Jamiyatning ko'pchilik qismini ifodalaydigan, hokimiyatga da'vogar ikki tomondan biriga qo'shilganda o'sha tomonning g'alabasini ta'minlovchi simvolik personajlar sifatida egizak Sem va Eriklarning tanlanishi ham yozuvchining o'z vazifasini naqadar

mukammal bajargan ekanini yorqin isbotidir. Egizaklar asarda Ralfning eng sodiq, ishongan jonkuyar do'stlari bo'ladi. Ular bilan bir qatorda kichik yoshdagi bolalarning ham asarga kiritilishi juda muhim hisoblanib, ularning timsolida Golding oddiy xalqni ko'rsatib berishga urinadi.

Umuman olganda, “ Pashshalar hukmdori” va unga o'xshash allergorik xarakterga ega bo'lgan asarlar bevosita va bilvosita reallikka da'vo qiladi. Har bir voqeя va konfliktlar, ilgari surilgan g'oyalar majmuasi kabilar inson va insonnig atrof muhit bilan uzviy aloqasi, munosabatlaridan kelib chiqadi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak “Pashshalar humdori” bugungi kunda haqiqiy manifest, “ o'qish shat” deb hisoblanuvchi asar va haqiqiy bashorat, zamonaviy jamiyat muammolariga e'tiborga chaqiriq deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.uplift.uz/kitoblar/uilyam-goldingning-pashshalar-hukmdori-kitobi-xulosasi/>
2. <https://moscsp.ru/uz/povelitel-muh-protivostoyanie-dvuh-vozhdei-povelitel-muh-hudozhestvennyi.html>
3. <https://moscsp.ru/uz/povelitel-muh-protivostoyanie-dvuh-vozhdei-povelitel-muh-hudozhestvennyi.html>
4. <https://william-golding.co.uk/about-william-golding#:~:text=In%20addition%20to%2012%20novels,wanted%20to%20be%20a%20writer.>